

Noto‘liq oilaning jamiyatdagi o‘rni va psixologik ta’siri

Guzal Xolmuhammad qizi Rustamova
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy psixologiyada noto‘liq oilalarning jamiyatdagi o‘rni, bolalar rivojlanishiga ta’siri va psixologik oqibatlari o‘rganiladi. Noto‘liq oila - bu farzandlardan biri yoki bir nechta ota-onaning faqat bittasi bilan yashaydigan oiladir. Bu holat turli sabablar, jumladan ajrashuv, ota-onalardan birining vafoti yoki nikohsiz tug‘ilgan farzandlar sababli yuzaga keladi. Maqolada asosiy e’tibor bunday oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning emotsiyal holati, shaxsiy rivojlanishi, o‘zini anglash darajasi va ijtimoiy moslashuviga qaratilgan. Psixologik tadqiqotlar, statistik ma’lumotlar va olimlarning qarashlariga ko‘ra noto‘liq oilalarda uchraydigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, psixologik yordam mexanizmlari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralarining ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy oila, ajrim, yetimlar, ijtimoiy institut, ruhiy nochorlik, pedagogik resurslar, shaxsiy namuna

The role and psychological impact of a dysfunctional family in society

Guzal Kholmuhamed kizi Rustamova
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article explores the role of single-parent families in society, their impact on child development, and their psychological consequences within the context of modern psychology. A single-parent family is defined as a family in which one or more children live with only one of their parents. This situation may arise due to various reasons, including divorce, the death of a parent, or children born out of wedlock. The article focuses on the emotional state, personal development, self-awareness, and social adaptation of children growing up in such families. Based on psychological research, statistical data, and expert opinions, the main challenges faced by children in single-parent families are analyzed. Additionally, the importance of psychological support mechanisms and social assistance measures is highlighted.

Keywords: modern family, divorce, orphans, social institution, mental helplessness, pedagogical resources, personal example

KIRISH

Shaxs uchun eng muhim bo‘lgan qadriyatlar ichida oilaning o‘rnii eng yuqorilardan birini egallaydi. Jamiyatdagi boshqa hech bir ijtimoiy institut oilaning ta’sir kuchi bilan tenglasha olmaydi, chunki aynan oilada inson shaxs sifatida dunyoga keladi va rivojlanadi. Bola jamiyatga og‘riqsiz moslashish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy rollarni aynan oilada o‘zlashtiradi. Oila inson hayotidagi birinchi tarbiyaviy institut bo‘lib, bu bog‘liqlik butun umr davomida sezilib turadi.

Oila har doim shaxs shakllanishining eng muhim ijtimoiy sohasi bo‘lib kelgan va shundayligicha qolmoqda. U, shuningdek, tarbiya va psixologik qo‘llab-quvvatlashning asosiy manbaidir. Mashhur pedagog A.S.Makarenko ham oila tuzilmasiga alohida e’tibor qaratgan. U "to‘liq oila" va "noto‘liq oila" tushunchalarini ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lib, noto‘liq oilani onasi yoki otasi yo‘q bo‘lgan oila sifatida ta’riflagan. Oilaning tuzilmasiga qarab bolani tarbiyalash jarayoni hamda uning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Noto‘liq oilalarda voyaga yetayotgan bolalar ko‘pincha ruhiy jihatdan zaifroq, o‘ziga ishonchsizroq bo‘lishadi, ularda turli komplekslar shakllanishi mumkin. Ajrashgan ayol sifatidagi ijtimoiy maqomi sababli ona o‘zini xavotirda his qiladi. U psixologik tayanchga ega emas, bolalari uchun mas’uliyatni hech kim bilan bo‘lisholmaydi. Natijada - ona va bola ruhiy nochorlikka (deprivatsiyaga) duchor bo‘ladi.

Noto‘liq oilalarning qiyinchiliklari haqida ko‘p gapirilgan va yozilgan. Ammo oilaning to‘liq bo‘lishi tarbiyada muvaffaqiyat kafolati emas, xuddi shuningdek, noto‘liq oila bo‘lishi har doim muammolar bo‘ladi degani emas. Farzand uchun ota-onaning uyi hayotdagi eng birinchi va eng muhim mакtabdir. Aynan oila inson shaxsining shakllanishiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatadi, uning fazilatlari poydevorini barpo etadi. Ushbu poydevor mustahkam bo‘lishi uchun oila farovon bo‘lishi kerak. Oilaning farovonligi esa bevosita uning tuzilmasi - to‘liq yoki noto‘liqligiga bog‘liq bo‘ladi. Har qanday to‘liq oila ham farzand tarbiyasi va rivoji uchun sog‘lom muhit bo‘la olmaydi. Biroq, ota-onaning ikkalasi ham ishtirok etadigan oilalarda bolalarning ruhiy salomatligini saqlab qolish bilan bog‘liq ko‘plab vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkoniyati ancha yuqori bo‘ladi.

Noto‘liq oilalarda bo‘lajak turmush o‘rtoqlar uchun eng muhim narsa - oila munosabatlarining namunasi - mavjud emas. Shu sababli, bolalar (kelajakdagi ota-onalar va turmush o‘rtoqlar) uchun ham er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar va hiss tuyg‘ular madaniyatini shakllantirish imkoniyati ancha cheklangan.

Azaldan ota-onalar uyi “otaxon” deb atalgan va bu iborada otaning bolani tarbiyalashda va uning shaxsiyatini shakllantirishda tutgan asosiy roli mujassam. Ammo otalik baxti o‘z-o‘zidan kelmaydi, u meros bo‘lib o‘tmaydi. Bu borada fransuz pedagogi va faylasufi J.-J. Russo aytgan fikrlar juda qiziq: “Farzand tug‘ib, uni boqish

orqali ota o‘z vazifasining atigi uchdan bir qismini bajaradi. U insoniyatga - odamlarni, jamiyatga - ijtimoiy faol shaxslarni, davlatga esa - fuqarolarni yetkazib berishi kerak. Kimki bu uch karra soliqni to‘lay olish imkoniga ega bo‘la turib, buni bajarmasa, u aybdor hisoblanadi, hatto yarmisini bajarsa ham. Kim otalik burchlarini bajara olmasa - u bu huquqqa ega emas.”

Noto‘liq oila nikohning bekor qilinishi, nikohsiz tug‘ilgan farzand, ota-onadan birining vafoti yoki ularning alohida yashashi oqibatida vujudga keladi. Shu asosda noto‘liq oilalarning quyidagi turlari ajratiladi: nikohsiz, yetim, ajrashgan va tarqoq oilalar. Shuningdek, noto‘liq oilalar otalik va onalik turlariga ham bo‘linadi ya’ni bolaning tarbiyasi bilan qaysi ota-onsa shug‘ullanayotganiga qarab. Noto‘liq oilada hatto chin dildan g‘amxo‘rlik qiladigan ayol ham bolani tarbiyalash uchun yetarli vaqtga ega bo‘lmaydi. Onalarning mehnat bilan haddan tashqari bandligi va zo‘riqishi tufayli, bolalar ko‘pincha o‘z holiga tashlab qo‘yiladi. Tarbiya jarayonida yagona ota-onsa tomonidan bolani to‘liq nazorat qilish, uning xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatish ancha murakkab bo‘ladi. Samarali tarbiyani amalga oshirishga bir qator obyektiv omillar ham to‘sinqinlik qiladi: oila ichidagi an’anaviy uchlik - "ota-onsa-bolalar" tizimi buziladi. Bunga asosiy sabab - ota-onaning, ayniqsa onaning ishdagi haddan ortiq bandligi bo‘lib, bu holat farzandga zarur darajada e’tibor berilishiga to‘sinqinlik qiladi.

Shuningdek, ota-onadan birining yo‘qligi bolaning jinsga xos xulq-atvor stereotiplarini to‘liq shakllantirish imkoniyatini cheklaydi. Masalan, agar oilada ota bo‘lmasa, o‘g‘il bola erkaklarga xos fazilatlarni yaqin namunada ko‘ra olmaydi va onaning xulq-atvoridan ayollarga xos xususiyatlarni beixtiyor o‘zlashtiradi. Qiz bola uchun esa bu holatda ona nafaqat ona sifatida, balki otaning rolini ham o‘z zimmasiga olishga majbur bo‘ladi. Bu esa bolaning psixoseksual rivojida ziddiyatli holatlarni keltirib chiqaradi.

Oilada nafaqat bolalar, balki kattalar ham tarbiyalanadi. Ayniqsa, uning o‘sib kelayotgan avlodga ko‘rsatadigan ta’siri nihoyatda muhimdir. Oilaviy tarbiyaning muvaffaqiyati bevosita oilaning tarbiyaviy salohiyatiga bog‘liq. Oilaning tarbiyaviy salohiyati - bu pedagogik resurslarni belgilovchi shart-sharoitlar va vositalarning majmuasidir. Bu majmua maishiy va moddiy sharoitlarni, oilaning soni va tarkibini, oila jamoasi rivojlanishini va a’zolar o‘rtasidagi munosabatlar turini o‘z ichiga oladi. Bunga qo‘sishma ravishda, oiladagi hissiy-psixologik muhit, mehnatga munosabat, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ota-onalarning bilimi, hayotiy tajribasi va kasbiy fazilatlari ham kiradi. Shuningdek, ota va onaning shaxsiy namunasi, oilaviy an’analar ham katta ahamiyatga ega. Oila turli yoshdagi, ko‘pincha turli jinsdagi va turli kasbiy qiziqishlarga ega bo‘lgan insonlarni birlashtiradi. Aynan mana shu xilma-xillik bolaga o‘z intellektual va hissiy imkoniyatlarini to‘liq namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa. Noto‘liq oilalar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, ularning mavjudligi turli ijtimoiy va psixologik omillar bilan bog‘liq. Bunday oilalarda voyaga yetayotgan bolalar ko‘plab psixologik sinovlarga duch keladilar: o‘zini yolg‘iz his qilish, emotsiyal beqarorlik, shaxsiy rivojlanishda qiyinchiliklar va ijtimoiy moslashuvda muammolar. Shu bilan birga, noto‘liq oilalarda o‘savotgan bolalar ko‘pincha mustaqillik, mas’uliyat va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni erta egallaydilar. Ota-onaning birining yo‘qligi bolaning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa-da, ijobiy tarbiya, jamiyat va davlatning qo‘llab-quvvatlashi ushbu salbiy oqibatlarni yumshatishi mumkin. Demak, noto‘liq oilalarning jamiyatdagi o‘rnini baholashda nafaqat ularning muammolari, balki ularni yengib o‘tish imkoniyatlari va rivojlanish potensialini ham hisobga olish lozim. Har bir bola mehr va e’tiborga loyiq va aynan shu yondashuv noto‘liq oilalarning ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Целуйко В.М. Психология неблагополучной семьи. - М.: Владос, 2003.
2. Целуйко В.М. Неполная семья. - Волгоград, 2000.
3. Воспитание детей в неполной семье. - М., 1985. - С. 35.
4. Семья. Социально-психологические и этнические проблемы: справочник. - К., 1990. - С. 7.
5. Kamolova, A. O. Q., & Rustamova, G. Z. X. Q. (2025). Pedagoglar faoliyati jarayonida salomatlik madaniyatining ahamiyati va o‘rni. Science and Education, 6(2), 329-333.
6. Rustamova, G. Z. X. Q., & Kamolova, A. O. Q. (2025). Nosog ‘lom oila muhitida voyaga yetayotgan bolalarda ijtimoiy adaptatsiya muammoining psixologik xususiyati. Science and Education, 6(2), 301-305.
7. Rustamova, G. X. Q. (2025). Oilaning tarixiy rivojlanishi va bola tarbiyasidagi ijtimoiy psixologik o‘rni. Science and Education, 6(3), 205-208.
8. Usubkhanovna, S. S. (2025, March). ADVANTAGES OF USING ANIMATED RESOURCES COMPARED TO TRADITIONAL TEACHING METHODS. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 35-39).
9. Olimjonovna, R. Z. (2024). EMOTSIONAL INTELLEKT BOLAJAK MUTAXASSISLARNING MUHIM XUSUSIYATI SIFATIDA. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 5(41), 452-458.
10. Olimjonovna, R. Z. (2024). O ‘YIN TERAPIYASI BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024, 3(35), 190-195.
11. Rahmatullayeva, Z. O. (2021). Development of emotional intelligence in preschool children. Экономика и социум, (5-1 (84)), 414-417.

12. Rahmatullayeva, Z. (2024). FALSAFIY TA'LIMOT NOMOYONDALARI QARASHLARIDA EMOTSIONAL INTELLEKT MUAMMOSINING ORGANILGANLIGI. "ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 1(9).
13. Abduqodirov, A. A. O. G. L., & Kamolova, A. O. Q. (2025). Muzeylarning inson ongiga ta'siri va ijtimoiy roli. Science and Education, 6(3), 191-194.
14. Azimaxon, K. (2025). Professional Health of Teachers as A Key Factor in The Development of Modern Education. European International Journal of Pedagogics, 5(01), 121-124. Kamolova, A. (2024). KASBIY KASALIKLARNI OLDINI OLISHDA VA OLIY TA'LIM MUASSSASASI TALABALARINING SALOMATLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. "PEDAGOGICAL ACMEOLOGY" xalqaro ilmiy-metodik jurnali , 16 (8).
15. Utepbergenov, M. A., & Roziqova, M. O. Q. (2025). Oilada yuzaga keladigan nizolarning bola ijtimoiylashuvi va tarbiyasiga ta'siri hamda nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and Education, 6(2), 320-325